



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «26» июль

VI-51-137-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

Jinoyat ishlari bo'yicha Angor tuman sudi raisining jinoyat ishlari bo'yicha Angor tuman sudining 2022 yilning 1-yarmi mobaynidagi odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyati axboroti to'g'risida

2022 yilning 1-yarmi mobaynida 95 nafar shaxsga nisbatan 71 ta jinoyat ishi tuman sudining ish yurituviga kelib tushgan. Shundan 71 nafar shaxsga nisbatan 53 ta jinoyat ishlari bo'yicha ayblov hukmlari chiqarilib, sudlangan shaxslarning 18 nafariga ahloq tuzatish ishlari, 25 nafariga ozodlikdan maxrum qilish, 21 nafariga ozodlikni cheklash, 5 nafariga nisbatan jarima jazolari tayinlangan, 24 nafar shaxsga nisbatan 18 ta jinoyat ishi yarashganligi sababli tugatilgan. Ko'rib tamomlangan 71 ta jinoyat ishlaridan 24 tasi tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari, o'quv muassalari va boshqa tashkilotlarda sayyor sud majlislarida ko'rib chiqilib, mahalla fuqarolari, tashkilot xodimlariga jinoyatning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish bo'yicha tegishli tushuntirish ishlari olib borilgan. Tuman sudi tomonidan 2022 yilning 1-yarmi mobaynida ayollarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiq ishlatish bilan bog'liq 15 ta shaxsga nisbatan 9 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan, shundan 5 ta jinoyat ishi bo'yicha 7 nafar shaxsga nisbatan ayblov hukmi chiqarilgan, 4 ta ish 6 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishlari ishlari yarashuvga asosan tugatilgan. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavsizligi qoidalarini buzish bilan bog'liq 11 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishi ko'rib tamomlangan. Odam o'limi bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari ko'paygani bilan bog'liq masalalar muhokamasida ma'lum bo'lishicha, bu borada eng asosiy muammo haydovchi va piyodalarning bilim-ko'nikmalari, qonunga itoatkorlik va boshqa yo'l harakati ishtirokchilariga o'zaro hurmat va muomala madaniyatida ekanligi ma'lum bo'lmoqda.

Shuningdek, mazkur axborotda Yo'l harakati qoidalari buzilishi, ta'mirtalab yo'llar, yo'l belgilarini xatlovdan o'tkazish, ularni bosqichma-bosqich zamonaviy

qoplamali yo‘l belgilari bilan almashtirish borasidagi ishlar, jinoyatchilikning oldini olish borasida chiqarilgan xususiy ajrimlar, jinoyatlarni oldini olish borasida amalga oshirilgan profilaktik tadbirlar, jazoni ijro etish mussalaridan ozod qilingan shaxslar ustidan nazorat o‘rnatish, surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash, ma‘muriy ishlar statistik ma‘lumotlar tahlili, sud tomonidan amalga oshirilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari kabi ma‘lumotlar raqamlarda tahlil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2017 yil 13 iyun kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi sud organlari tizimida odil sudlovni ta‘minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va kelgusidagi vazifalarning muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida Jinoyat ishlari bo‘yicha Angor tumani sudi raisi S.Bo‘tayevning axborotini tinglab, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, halq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Jinoyat ishlari bo‘yicha Angor tumani sudi raisi S.Bo‘tayevning Sud organlari tizimida odil sudlovni ta‘minlash borasida Jinoyat ishlari bo‘yicha Angor tumani sudi tomonidan 2022 yilning o‘tgan davri davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jinoyat ishlari bo‘yicha Angor tumani sudi (S.Bo‘tayev)ga quyidagilar:

- bugungi dolzarb masalalardan hisoblangan odam savdosi, ayollarga nisbatan zo‘rovonlik va tazyiq ishlatish, korrupsiyaga qarshi kurashish, majburiy mehnat, gender tengligi, xususiy mulk daxlsizligi, investitsiyalarni himoya qilish, sudlarning shaffofligi va ochiqligi kabi ustuvor masalalarga birinchi navbatda e‘tibor qaratish;

- jinoyat sodir etilgan va kelgusida nazoratda bo‘ladigan hududlardagi mahalla fuqarolar yig‘inlari, o‘quv muassasalari, mahalla fuqarolari, tashkilot xodimlariga jinoyatning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish bo‘yicha tegishli tushuntirish ishlari olib borish;

- xalq bilan muloqot o‘rnatishga qaratilgan choralar rejalarini tasdiqlab, joylarda mavjud muammolarni hal etish uchun aholi bilan har oyda kamida bir marta ochiq muloqotlar tashkil etish tizimini yo‘lga qo‘yish tavsiya etilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman

Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (Yu.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV